

BOZOR AGROIQTISODIYOTIDAGI INSTITUTSIYONAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA HAMKORLIK TAMOYILLARI SHAKLLARI

¹Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

²Ismoilova Muyassar

Guliston Davlat Universiteti magistri,

³Abdug'apparova Odina,

⁴Abduqayumov Umidjon,

⁵Anafiyayev Oxunjon,

⁶Ashurmatov Narzullo,

⁷Isroilova Farangiz,

⁸Jumayeva Sarvinoz

Guliston Davlat Universiteti talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7457726>


Annotatsiya: Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri xisoblanadi. 2018 yilda qishloq xo'jaligining O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 28,8 foizni tashkil qildi. 2018 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 53,2 foizi o'simlik mahsulotlarini, 46,8 foiz chorvachilik mahsulotlarini tashkil etdi. 2017 yilda qishloq xo'jaligida 3,7 million kishi ish bilan ta'minlandi (jami ish bilan ta'minlanganlarning 27,2 foizi). Mamlakat aholisining deyarli yarmi qishloq joylarida yashaydi (2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda 33,25 mln. kishi, shu jumladan, qishloq joylarda 16,45 mln kishi (aholining 49,5 foizi) yashaydi). Bugungi kunda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun turli loyihalar va kreditlar amalga oshirilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 iyundagi «Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokidagi «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish» loyihasini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3790-sonli qarori asosida 2015-2023-yillar uchun ishlab chiqilgan marketing strategiyasi bunga misol bo'la oladi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, Aqlli qishloq xo'jaligi, Intensiv bog'lar, eksport-import, shartnoma, klasterlar

Kirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 20 iyundagi «Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokidagi «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish» loyihasini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3790-sonli qarori asosida 2015-2023-yillar oralig'ida qiymati 650 mln AQSH dollari bo'lgan

imtiyozli kredit mablag'lari bir qancha yo'nalishlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib ular quyidagilar:

- Intensiv bog'lar, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish uchun hosildorligi yuqori bo'lgan intensiv ko'chatlar va urug'lar sotib olish;
- Tomchilatib sug'orish tizimini joriy qilish, intensiv bog'lar uchun talab qilinadigan aksessuarlar va uskunalar xarid qilish (shpaler, sim, setka va b.);
- Meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash uchun sovuqxonalar va muzlatkichlar, qayta ishlash, saralash va qadoqlash texnologiyalari, qishloq xo'jaligi korxonalarini va fermer xo'jaliklarini aylanma mablag'lari bilan ta'minlash;
- Qizilmiya, kavrak, kovul va boshqa dorivor o'simliklar plantatsiyasini yaratish, qayta ishlash va saqlash;
- Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash uchun texnika va texnologiyalar xarid qilish;
- Sabzavot mahsulotlari yetishtirish uchun issiqxonalar va bog'lar tashkil etish uchun ko'chatxonalar barpo etish va boshqalar.1-rasm.



1-rasm.Meva –sabzavotlar bo'yicha YAMM ulushi

Bugungi kunda O'zbekistonning EOII bilan tashqi savdosidagi ulushi deyarli 30%, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmi esa 75% dan ortiqni tashkil qiladi. O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi elchixonasi yordami bilan Samarqand viloyatidagi O'zbekistonning «GardenCells» kompaniyasi bilan Britaniyaning "Vita Plus Ltd" kompaniyasi o'rtasida quruq mevalarni yetkazib berish bo'yicha qiymati 500 ming AQSh dollariga teng shartnoma

imzolandi. Bozor agroiqtisodiyotidagi institutsiyonal o'zgarishlar sharoitida hamkorlik tamoyillarini rivojlantirish maqsadida 2020- yil yanvar oyidan Buyuk Britaniyaning "Vita Plus Ltd" korxonasi bilan tuzilgan shartnomaga asosan, ushbu davlatga 15 tonna bodom, mayiz hamda yeryong'oq mahsulotini yetkazib berish jarayoni amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Yaponiyaga mayiz eksport qiluvchi davlatlar orasida 8-o'rinni egalladi. Bugungi kunda quritilgan mevalarni Kunchiqar yurtga yetkazib berish tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Ular Yaponiyaning eng yirik internet-do'konlarida - Rakuten, Amazon, Yahoo sotilmoqda, shuningdek "Silk Road Fruits" savdo nomi ostida qandolat fabrikalariga yetkazib berilmoqda.

Shuningdek yurtimizga boshqa mamlakatlardan ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamkorlik asosida kirib kelib, yetishtirilmoqda. Italiyadan 20 million dona za'faron piyozboshlari ortilgan yuk mashinalari Jizzax viloyatiga yetib keldi. Davlatimiz rahbari tomonidan respublikada za'faron plantatsiyalarini barpo etish, farmatsevtika sanoati ehtiyojlarini ta'minlash va eksportbop dorivor o'simliklarni ko'paytirishni tashkil etish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosi doirasida "BMB Trade Group" kompaniyasi Jizzax viloyatidagi 200 gektar yer maydonida za'faron plantatsiyalarini barpo etildi. Bugungi kunda O'zbekiston dunyodagi za'faron yetishtiriladigan eng yirik beshta davlatlardan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda "Qishloq xo'jaligini isloh qilishda Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi va uni O'zbekiston Respublikasida qo'llash imkoniyati" mavzusidagi o'zbek-xitoy konferensiyasi bo'lib o'tdi. XXR Fanlar Akademiyasining Shanxay farmakologiya instituti hamkorligida "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasida Xitoyning "Topharman & Vigonvita & CADDC-CASS" konsorsiumi bilan dorivor moddalarni sintez qilish bo'yicha O'zbekiston-Xitoy tibbiyot texnologik parkini tashkil etilmoqda.

Jahon tajribalarini inobatga olgan holda O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi doirasida zamonaviy innovatsion "Agroxizmatlar markazi" faoliyati ilk bor Farg'ona viloyatida yo'lga qo'yiladigan bo'ldi. Davlatimiz rahbari Farg'ona viloyatiga tashriflari chog'ida har bir hududning yeri, resurslari, imkoniyatlarini to'liq safarbar etish, qishloq xo'jaligi sohasida agroxizmatlar ko'rsatish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha muhim ko'rsatmalar bergan edi. Mazkur hududiy markaz tomonidan "yagona darcha tamoyili" asosida davlat-xususiy sherikchilik shartlarida 500 dan ortiq agrosanoat majmuiga oid xizmatlar ko'rsatiladi. SHundan 40 dan ortiq yangi turdagi innovatsion texnologiyalar asosidagi qator xizmatlar, jumladan, geoaxborot tizimlari, dron xizmatlari, xalqaro standartlar, "Organic", "Global

G.A.P” va “Halol” sertifikatlari joriy etilib aqlli qishloq xo’jaligi va sun’iy intellekt rivojlantiriladi.

Xulosa: Xulosa kilib aytganda yurtimizga boshqa mamlakatlardan ham qishloq xo’jaligi mahsulotlari hamkorlik asosida kirib kelib, yetishtirilmoqda. Bozor agroiqtisodiyotidagi institutsiyonal o’zgarishlar sharoitida hamkorlik tamoyillarini rivojlantirish bugungu kun talabidir. Jahon tajribalarini inobatga olgan holda O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi doirasida zamonaviy innovatsion “Agroxizmatlar markazi” faoliyati ilk bor Farg'ona viloyatida yo'lga qo'yiladigan bo'ldi. SHundan 40 dan ortiq yangi turdagi innovatsion texnologiyalar asosidagi qator xizmatlar, jumladan, geoaxborot tizimlari, dron xizmatlari, xalqaro standartlar, “Organic”, “Global G.A.P” va “Halol” sertifikatlari joriy etilib aqlli qishloq xo’jaligi va sun’iy intellekt rivojlantiriladi. XXR Fanlar Akademiyasining Shanxay farmakologiya instituti hamkorligida “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasida Xitoyning “Topharman & Vigonvita & CADD-CASS” konsorsiumi bilan dorivor moddalarni sintez qilish bo’yicha O’zbekiston-Xitoy tibbiyot texnologik parkini tashkil etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2018 YIL 20 IYUNDAGI «XALQARO TIKLANISH VA TARAQQIYOT BANKI ISHTIROKIDAGI «O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH» LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA»GI PQ-3790-SONLI QARORI
2. R. X.ERGASHEV, SH.SH. FAYZIYEVA S.N.XAMRAYEVA “QISHLOQ XO’JALIGI IQTISODIYOTI” TOSHKENT – 2018.
3. A.BURXONOV “QISHLOQ XO’JALIGI IQTISODIYOTI” TOSHKENT – 2021.
4. GULIZAHRO, T., NIGORA, S., DILAFRUZ, A., & AZAMAT, Z. (2022). QISHLOQ XO’JALIGIDA AGRASANOAT VA MUSTAQIL SANOAT TARMOQLARINING TUZILMASI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 203-206.
5. TURAYEVA, G., SUYUNOV, S., IBODULLAYEV, N., TURSUNQULOVA, M., & RASULOVA, N. (2022). SANOAT ULUSHINI OSHIRISHDAGI (XUSUSAN ENGIL SANOAT) MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. ZAMONAVIY DUNYODA INNOVATSION TADQIQOTLAR: NAZARIYA VA AMALIYOT, 1(28), 27-31.